

O'RTA OSIYO SHAMOLLARI HAMDA ULARNING REL'EFGA TA'SIRI

Meliqo'ziyeva Nilufarxon G'ayratjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Hamdamjonova Jasminaxon Hamzali qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'rta Osiyo shamollarini haqida bo'lib, shamollarning turlari, xusussiyatlari va ularning o'lka rel'efiga ta'siri haqida haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Shamol, briz, musson, passat, garmsel, afg'on shamoli, xo'jand shamoli, bekobod shamoli.

KIRISH

Atmosferadagi xavo massalarining yer yuzasiga nisbatan harakati shamol deyiladi. Shamol vujudga kelishining asosiy sababi yer yuzasining turli joylaridagi havo bosimida farq bo'lishidir. Shamol xavo bosimining notekis taqsimlanishi, markazdan qochma kuch, karioliz kuchi, ishqalanish kuchi natijasida paydo bo'ladi. Yer yuzi relefini o'zgartiradigan hamda alohida xususiyatga ega bo'lgan yotqiziqlar hosil qiladigan muhim ekzogen omillardan biri shamoldir.

ASOSIY QISM

O'rta osiyo shamollar xususiyatlari shu joylarda esuvchi havo massalariga va relefiga bog'liq. O'rta osiyo hududida shamollarning tezligi yil fasllari bo'yicha bir xil emas. Bahor va yozda shamollarning tezligi ortib, sekundiga o'rtacha 3 metrga, Kaspiy va orol dengizlari qirg'oqlarida 6 metrga yetadi. Aksincha kuz va yozning ikkinchi yarmida shamolning tezligi sekinlashib, sekundiga 1-2 metrga tushib qoladi. Tekisliklarda bazan kuchli shamol sodir bo'lib, sekundiga 15 metrga va undan ham ortishi mumkin. Lekin, bu shamollar qisqa muddatli bo'lib, ko'proq tekislik ning g'arbiy qismida sodir bo'ladi, sharqqa borgani sari kamdan kam esadi. Markaziy Qoraqumda bunday kuchli shamollar bir yilda 10 kun esib tursa, Qizilqumda 14 kun, Kaspiy qirg'oqlarida esa 30-36 kun esadi. O'rta osiyo o'lkasida shamollar relefga kata ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tog'larda tog'-vodiylar shamollar ko'proq esib turadi. Tog'larning 2500-3500 metr balandliklarida yil davomida g'arbiy shamollar esib turadi, natijada o'sha balandliklarda yog'in miqdori ortadi. Bu g'arbiy shamollar shu kengliklarga xos bo'lgan mashhur g'arbiy shamollardir.

Hududning tog‘ va tog‘ oldilarida tog‘ briz yoki tog‘-vodi shamollari esib turadi. Bu tur shamollari, ayniqsa yilning issiq faslida tez-tez sodir bo‘ladi. Tog‘-vodi shamollari kunduzi yonbag‘ir bo‘ylab toqqa, kechasi esa vodi bo‘ylab pastga esib turadi.

Yilning sovuq faslida xududning tog‘oldi qismilarida issiq va quruq fyon shamollar esib turadi. Bu shamollarning vujudga kelishiga asosiy sabab qishda o‘lkaning g‘arbiy tekislik qismida siklonlar o‘tishi tufayli bosim pasayadi. Aksincha, tog‘larda sovuq bo‘lib, bosim yuqori bo‘ladi. Natijada past bosimli xududga qarab tog‘dan shamol esadi, oqibatda pastga esayotgan shamol zichlashib isiydi va quruqlashadi.

O‘rta Osiyo hududida yozda va bahorda vujudga keladigan quruq va issiq shamolni mahalliy aholi garm sel deb ataladi. Garm sel vujudga kelishi haqida har xil fikrlar mavjud. Ba’zi olimlar fikriga ko‘ra yuqori bosimli havo massasining cho‘l ustidagi havo orasiga kirib, uni atrofga surishidan hosil bo‘ladi. Boshqalari esa Erondan Turon tekisligiga kirib keluvchi havo massalari Turkmaniston-xuroson tog‘laridan oshib o‘tishidan siqilib isiydi, oqibatida garm sel vujudga keladi deyiladi. Yana bir guruh olimlarning fikriga ko‘ra g‘arbdan hamda shimoli-g‘arbdan aniqlagan front ortida bosim pasayadi, oqibatda tog‘lar tomonidan pastga esadigan sharqiy yoki janubiy-sharqiy shamollar paydo bo‘ladi. Pastga tushayotganda bu havo ham zichlashib, isib, qurib, fyon kabi harorati ko‘tariladi, nisbiy namligi pasayib garm sel vujudga keladi.

O‘rta Osyoning janubiy-sharqida qismiga, xususan Surxondaryo, Vaxsh vodiylariga janubdan, janubiy-sharqdan afg‘on shamoli esadi. Bu issiq va quruq shamol bo‘lib, tezligi sekundiga 15 metrga yetadi. Afg‘on shamolining vujudga kelishi sovuq havoning kirib kelishi bilan bog‘liq.

Mahalliy shamollarning yana biri Xo‘jand yoki Farg‘ona darvozasidan xar ikki tomonga esib turuvchi bekobod va qo‘qon shamollaridir. Bekobod yoki xovos shamoli yilning sovuq davrida g‘arbdan Mirzacho‘l tomonda bosim past, aksincha Farg‘ona vodiy sining sharqida bosim yuqori bo‘lganda kuchli bo‘ladi. Farg‘ona vodiy sida to‘plangan sovuq havo g‘arba qarab esadi, natijada Xo‘jand darvozasiga yaqinlashgach zichlashib, tezligi ortadi. Chunki darvozada vodi torayadi, oqibatda shamolning tezligi yanada ortib, sekundiga qishda 30-40 metrga, bazan 45 metrgacha tezlikda Mirzacho‘l tomon esadi. Yozda bu shamolning tezligi sekundiga 15-20 metrdan oshmaydi. Bekobod yoki xovos shamoli yiliga o‘rta hisobda 52 kun esadi.

Bekobod shamoli esganda 2-3 kun, bazan esa 4-5 kun davom etadi.



1-rasm. Bekobod shamoli.

Qo‘qon shamoli asosan bahor va kuzda sodir bo‘ladi hamda yiliga o‘rtacha 40-50 kun esib turadi. Uning tezligi sekundiga o‘rtacha 15-25 metrga yetadi. Qo‘qon shamoli Arktikadan kelgan sovuq havo massasi Mirzacho‘l tomondan vodiyya qarab esishi oqibatida tezligi ortib qo‘qon shamolini vujudga keltiradi. Qo‘qon shamolining vujudga kelishining yana bir sababi shuki, yilning issiq davrida Farg‘ona vodiysi atrofi nisbatan qizib ketadi, oqibatda qizigan yengil havo yuqoriga ko‘tariladi. Natijada uni o‘rnini to‘ldirish uchun g‘arbdan, Mirzacho‘l tomondan, nisbatan sovuq havo massasi kirib keladi.

XULOSA

O‘rta osiyo shamollari xususiyatlari shu joylarda esuvchi havo massalariga va relefiga bog‘liq. O‘rta osiyo hududida shamollarning tezligi yil fasllari bo‘yicha bir xil emas. Bahor va yozda shamollarning tezligi ortib, sekundiga o‘rtacha 3 metrga, Kaspiy va orol dengizlari qirg‘oqlarida 6 metrga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Geologiya asoslari. A.X. Jo‘liyev, A.Soatov, R.Yusupov Toshkent 2001
2. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov Toshkent 2002
3. Umumiyegeologiya. B.T.Toshmuhammedov Noshir 2011
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://hozirgi.org>
6. <https://www.genderi.org>
7. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi 5-sinf uchun darslik. P.N Gulyamov, R. Qurbonniyozov, M.M Avezov, N.P Saidova TOSHKENT-MITTI YULDUZ-2020